

BANKLARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBIDA QO'LLANILADIGAN HUJJATLAR VA ULARNING MOHIYATI

To'xtayev Furqat Boxodirovich

*“Muborakneftegazmontaj” AJga qarashli “Qarovulbozormaxsusmontaj”
unitar korxonasining moliyaviy ishlar bo'yicha bosh iqtisodchi*

Annotatsiya: Ushbu tezisda tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish tizimining amaldagi holati, undagi mavjud muammolar va hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida tovar-moddiy zahiralarni hisobini to'laqonli takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamlashtirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Xususan, zahiralarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash, audit jarayonlarida risklarni to'g'ri baholash, aktiv va majburiyatlarni nazorat qilishda raqamli tahlil mexanizmlaridan foydalanish kabi yechimlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tovar-moddiy zahiralarni, hujjatlar va ularning aylanishi, moliyaviy hisobot, inventarizatsiya, baholash usullari, zahira harakati, hisob siyosati, aktivlar tuzilmasi, moliyaviy tahlil, axborot ishonchliligi

Kirish

Tijorat banklari faoliyatida tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) muhim o'rin tutadi. Chunki ular bankning xo'jalik ehtiyojlarini qondirish, ofis faoliyatini tashkil etish, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini sifatli olib borishda zarur bo'lgan moddiy resurslardir. Ushbu zaxiralar tarkibiga xo'jalik inventarlari, mebel va jihozlar, kompyuter va tashkiliy texnika, yozuv-chizuv anjomlari, qog'oz mahsulotlari, reklama materiallari hamda boshqa yordamchi vositalar kiradi. Mazkur zaxiralarni hisobga olish va ularni nazorat qilish jarayoni bankda moliyaviy intizomni mustahkamlash, mablag'lardan oqilona foydalanish va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari moliyaviy va operatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida turli xarajatlarga duch keladi. Ushbu xarajatlarni nafaqat bankning moliyaviy barqarorligiga, balki foydalilik darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tovar-moddiy zaxiralarni samarali boshqarish muhim omil hisoblanadi. Zaxiralar sifatli boshqarilganda yoki ular hisob-kitoblarda o'z vaqtida qayd etilmaganda, ularning qadrsizlanishi yuzaga keladi va bu bankning moliyaviy ko'rsatkichlarini sezilarli darajada pasaytiradi.

Tahlil va Natijalar

O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatida tovar-moddiy zaxiralarni hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish va ularni amaliyotga to'liq tatbiq etish jarayoni bank tizimining shaffofligi hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik

ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalqaro standartlar talablariga muvofiq zaxiralar hisobini yuritish va auditini tashkil etish orqali tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini tezlashtirish mumkin.

Tijorat banklaridagi tovar-moddiy zaxiralar toifalari va tavsifi

Toifa	Tavsif	Ilmiy yondashuv	Amaliy misol (banklarda)
Ofis anjomlari va iste'mol materiallari	Kundalik faoliyat uchun zarur qog'oz, ruchka, printer kartuslari, blankalar.	Hilton (2016) xizmat ko'rsatishda yordamchi resurslar sifatida belgilaydi.	Hisob-kitob blankalari, plastik karta bo'sh shakllari, printer qog'ozlari.
Texnika va jihozlar uchun ehtiyot qismlar	Bank infratuzilmasi va IT tizimlarini ishlatish uchun zarur bo'lgan qismlar.	Mishkin (2021) – texnologik zaxiralar xizmat sifatiga bevosita ta'sir qiladi.	Bankomatlar uchun modul, server qismlari, UPS batareyalari.
Xavfsizlik vositalari	Bank binolarining xavfsizligini ta'minlaydigan moddiy resurslar.	Rose & Hudgins (2013) – bank barqarorligi uchun asosiy infratuzilma elementi sifatida baholaydi.	Seyf qutilari, signalizatsiya tizimi uchun detektorlar, kamera qurilmalari.
Maxsus blankalar va hujjatlar	Qattiq hisobda turuvchi hujjatlar va blankalar.	Abdullayev (2020) – ularni hisobda aniq yuritish auditning asosiy talabi.	Chek blankalari, qat'iy hisobda turuvchi hujjatlar, depozit shartnoma blankalari.
Xizmat ko'rsatish uchun yordamchi materiallar	Xodimlar uchun formalar, reklama materiallari, promo vositalar.	Hilton (2016) – xizmat sifati va mijozlar bilan aloqani mustahkamlash vositasi.	Brendlangan uniforma, reklama bannerlari, promo qalamlar.

Muallif ishlarnasi

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) ishlab chiqarish korxonalaridagidek asosiy mahsulot resurslari bo'lmasa-da, ular bankning kundalik faoliyati va moliyaviy xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Olimlar (Hilton, 2016; Mishkin, 2021; Rose & Hudgins, 2013; Abdullayev, 2020) qarashlari ham shuni tasdiqlaydiki, bank tizimidagi moddiy resurslar yordamchi xarakter kasb etadi, ammo ular xizmat sifati, mijozlar bilan munosabatlar, xavfsizlik va infratuzilma barqarorligining ajralmas qismidir. Xususan, ofis anjomlari va iste'mol materiallari operatsion faoliyatning uzluksizligini ta'minlasa, texnika va ehtiyot qismlar bank axborot tizimlari hamda bankomatlarining barqaror ishlashiga xizmat qiladi. Maxsus blankalar esa qat'iy hisob yuritilishi lozim bo'lgan hujjatlar sifatida audit va nazorat jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Xavfsizlik vositalari va yordamchi materiallar esa bankning jismoniy barqarorligini, brend imidjini va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda bevosita rol o'ynaydi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobida qo'llaniladigan asosiy hujjatlar

Hujjat nomi	Shakli	Maqsadi	Kim tomonidan tuziladi
Kirim orderi	M-4	Omborga kelib tushgan TMZni qayd qilish	Ombor mudiri, buxgalteriya
Qabul qilish dalolatnomasi	M-7	Kelib tushgan TMZ miqdori yoki sifati hujjatlarga mos kelmasa	Qabul komissiyasi
Chiqim orderi	M-2	TMZ ombordan bank bo'limlariga berilganda rasmiylashtiriladi	Ombor mudiri, mas'ul shaxs
Limitlashtirilgan talabnoma	M-10	Sarflash uchun oldindan belgilangan limitni ko'rsatadi	Bo'lim rahbari, buxgalter
Ombor hisob varaqasi	M-17	Ombordagi TMZ qoldig'i va harakatini qayd etadi	Ombor mudiri
Inventarizatsiya ro'yxati	INV-3	Haqiqiy mavjud TMZni hisob ma'lumotlari bilan solishtirish	Inventarizatsiya komissiyasi
TMZ harakati bo'yicha ichki hisobot	Ichki shakl	Oy oxirida TMZ harakati bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumot	Buxgalteriya bo'limi

Muallif ishlanmasi

Banklarda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishda hujjatlar asosiy manba hisoblanadi. Barcha kirim-chiqim operatsiyalari birlamchi hujjatlar bilan tasdiqlanishi shart. Bu hujjatlar bank moliyaviy intizomini ta'minlash, moddiy javobgarlikni aniqlash hamda ichki nazoratni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Kirim orderi (M-4 shakli) bankka kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni omborga qabul qilish uchun rasmiylashtiriladi. Unda TMZning nomi, miqdori, narxi va summasi qayd qilinadi. Agar kelib tushgan material sifatida yoki miqdorida farq aniqlansa, bu holat Qabul qilish dalolatnomasi (M-7 shakli) orqali tasdiqlanadi. Bu dalolatnoma maxsus komissiya tomonidan tuziladi va u TMZni qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlaydi. TMZ bank bo'limlariga berilganda Chiqim orderi (M-2 shakli) rasmiylashtiriladi. Shuningdek, ko'plab banklarda Limitlashtirilgan talabnoma (M-10 shakli) qo'llanilib, bu orqali xodimlar yoki bo'limlar ma'lum davr uchun belgilangan materiallardan ortiqcha foydalanmasligi nazorat qilinadi. Ombordagi TMZning mavjudligi va harakati Ombor hisob varaqasi (M-17 shakli) orqali yuritiladi. Bu varaq ombor mudiri tomonidan to'ldirilib, bankning buxgalteriya hisobi bilan muvofiqlashtiriladi. Yana bir muhim hujjat bu — Inventarizatsiya ro'yxati (INV-3 shakli) bo'lib, u orqali haqiqiy TMZ qoldiqlari hisobdagi ma'lumotlar bilan taqqoslanadi. Demak, bu hujjatlar TMZning kelib tushishi, sarflanishi va qoldiqlarini nazorat qilishda asosiy vosita hisoblanadi.

Xulosa va Taklif

Tijorat banklarida tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi va nazoratini takomillashtirish banklarning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston

banklari misolida olib borilgan tahlillar TMZ boshqaruvida bir qator muammolar mavjudligini, xususan, yo'qotishlarning yuqoriligi, ichki nazorat tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganli va avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy etilmaganligini ko'rsatdi. Zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish TMZ harakatini samarali nazorat qilish va yo'qotishlarni kamaytirish uchun muhimdir. Bu resurslardan real vaqt rejimida foydalanish va samarali boshqarish imkonini beradi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. MHXS (IFRS) standartlarini to'liq joriy etish. TMZ hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish, aktiv va majburiyatlarni MHXS talablari asosida qayta tasniflash zarur. Bu, bir tomondan, balansdagi nomutanosibliklarni aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, xalqaro auditorlar va investorlar uchun hisobotlarning shaffofligini oshiradi.

2. Byudjetlashtirish va KPI tizimlarini integratsiya qilish. ROA, ROE, NIM hamda aktivlar aylanish tezligi kabi asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va ularni byudjetlashtirish mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish lozim. Bu yondashuv rahbarlar va ijrochilar faoliyatini natijadorlik bilan bog'lab, TMZ hisobining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Hisobotlarni yuritishda raqamlashtirishni kuchaytirish. Moliyaviy monitoring, konsolidatsiyalashgan hisobotlar va aktivlar tarkibini tahlil qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda analitik platformalardan foydalanish orqali TMZ hisobini real vaqt rejimida yuritish imkoniyati yaratiladi. Bu MHXSni joriy qilish jarayonini tezlashtiradi.

4. Ichki auditning rolini oshirish. Ichki audit jarayonlarida MHXS standartlari va KPI ko'rsatkichlaridan foydalanish zarur. Bu bank balansidagi risklarni tezkor aniqlash, TMZ hisobida xatoliklarni kamaytirish va xalqaro standartlarga mos shaffof hisobotlarni tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Q.H.Berdiyev. Hususiy Kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish masalalari / Monografiya. Qarshi. "Intellekt" nashriyoti, 2023.-146 bet.
2. Ahmed, R. (2021). Risk Analysis in Commercial Banking. Journal of Financial Auditing, 27(4), pp. 120–135.
3. Kyiu, A. va Tawiah, V. (2025). IFRS 9 implementation and bank risk. Accounting Forum, 49(1), 234-258.
4. Bley, J., Saad, M. va Samet, A. (2019). Auditor choice and bank risk taking. International Review of Financial Analysis, 61, 37-52.

5. Hoelscher, J., Reed, B.J. va Sierra, G.E. (2019). The effect of insured liabilities on the demand for external audits: The case of privately-held United States banks. *J. of Corporate Accounting & Finance*, 30(3), 8-19.
6. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b.
7. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o ‘quv qo‘llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
8. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.
9. Bank for International Settlements. (2021). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Available at: <https://www.bis.org> [Accessed 15 Mar. 2025].
10. Brown, P. and Ilyasova, G. (2020). Liability Reporting in Banks: IFRS Perspective. *International Journal of Accounting*, 55(2), pp. 45–68.
11. Mishkin, F. S. (2020). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th ed. Pearson Education.
12. Hull, J. (2022). *Risk Management and Financial Institutions*. 5th ed. Wiley Finance.
13. <https://scopus.com> – Scopus ilmiy maqolalar bazasi (obuna orqali)
14. <https://wos.com> – Web of Science ilmiy maqolalar platformasi (obuna orqali)